YOSHLARNING MA'NAVIY BARKAMOLLIGINI TA'MINLASHDA MADANIYAT, SAN'AT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI

Jo'rayeva Madinaxon Bahodir qizi
Namangan davlat universiteti
2-bosqich bakalavr talabasi
jurayevamadina241@gmail.com
OrcID: 0009-0007-4086-2800

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarning ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishida madaniyat, san'at hamda ommaviy axborot vositalarining tutgan o'rni ilmiy-nazariy va ijtimoiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblangan ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda milliy madaniyat, san'at turlari hamda zamonaviy axborot makonining ta'siri ochib beriladi. Madaniyat va san'at orqali yoshlarning estetik didi, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlari shakllanishi, ommaviy axborot vositalari orqali esa ularning ijtimoiy faolligi va axborot madaniyati rivojlanishi yoritib beriladi. Shuningdek, yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborot xurujlari sharoitida OAVning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Maqolada yoshlarning ma'naviy barkamolligini mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ham keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, ma'naviy barkamollik, madaniyat, san'at, ommaviy axborot vositalari, milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, axborot makoni, estetik did.*

Абстрактный. *В данной статье с научно-теоретической и социально-педагогической точек зрения анализируется роль культуры, искусства и средств массовой информации в формировании молодежи как духовно зрелой личности. Раскрывается влияние национальной культуры, различных видов искусства и современного информационного пространства на воспитание духовно развитого поколения, являющегося важным фактором развития общества. Освещается формирование эстетического вкуса, мировоззрения и духовных ценностей молодежи через культуру и искусство, а также развитие их социальной активности и информационной культуры посредством средств массовой информации. Кроме того, обсуждаются вопросы эффективного использования воспитательного потенциала СМИ в условиях информационных атак, оказывающих негативное влияние на сознание молодежи. В статье также представлены практические рекомендации по укреплению духовной зрелости молодежи.*

Ключевые слова: *молодежь, духовная зрелость, культура, искусство, средства массовой информации, национальные ценности, духовное воспитание, информационное пространство, эстетический вкус.*

Abstract. *This article analyzes, from scientific-theoretical and socio-pedagogical perspectives, the role of culture, art, and mass media in shaping young people as spiritually mature individuals. It reveals the impact of national culture, various forms of art, and the modern information environment on the development of a spiritually enriched generation, which is considered an important factor in societal progress. The study highlights how culture and art contribute to the formation of young people's aesthetic taste, worldview, and spiritual values, while mass media foster their social activity and information culture. Furthermore, the article discusses the effective use of the educational potential of mass media in the context of information attacks that negatively affect youth consciousness. Practical recommendations for strengthening the spiritual maturity of young people are also provided.*

Keywords: *youth, spiritual maturity, culture, art, mass media, national values, spiritual education, information environment, aesthetic taste.*

Kirish

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ma'naviy barkamolligini ta'minlash eng dolzarb ijtimoiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Chunki jamiyat taraqqiyoti, millat kelajagi va davlat barqarorligi, avvalo, yosh avlodning ma'naviy yetukligi, dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari hamda ijtimoiy mas'uliyatiga bevosita bog'liqdir. Shu boisdan ham mustaqil O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Yoshlarning ma'naviy barkamolligini shakllantirishda ta'lim tizimi bilan bir qatorda madaniyat, san'at va ommaviy axborot vositalari ham muhim tarbiyaviy vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Madaniyat va san'at yosh avlodning estetik dunyoqarashini shakllantirsa, ommaviy axborot vositalari ularning axborot olish madaniyatiga, fikrlash tarziga hamda ijtimoiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, bugungi raqamli axborot makonida yoshlar turli ijobiy va salbiy axborot oqimlari ta'sirida qolayotgani ushbu masalaning yanada dolzarbligini oshirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yoshlar ongini zararli g'oyalardan himoya qilish, ularda milliy qadriyatlarga sadoqatni kuchaytirish, vatanparvarlik, madaniyatga hurmat, san'atga qiziqish kabi fazilatlarni rivojlantirishda madaniyat, san'at va OAVning o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolada aynan mana shu masalalar atroflicha tahlil qilinadi.

Madaniyat jamiyatning ma'naviy asosini tashkil etuvchi eng muhim ijtimoiy hodisalardan biridir. Uning tarkibida xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari, tafakkur tarzlari hamda turmush madaniyati mujassam. Shu bois madaniyat yoshlarning ma'naviy dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatadi va ularni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri sanaladi.

Milliy madaniyat yoshlar ongida vatanparvarlik, o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, bag‘rikenglik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Oila va mahalla muhitida yoshlar milliy qadriyatlar bilan tanishadi, bayramlar va ijtimoiy marosimlar orqali jamiyatning ma’naviy hayotiga kirib boradi. Bu jarayon ularning ijtimoiy faolligini oshiradi, jamiyatga moslashuvchanlikni kuchaytiradi va to‘g‘ri hayotiy pozitsiyani tanlashga yordam beradi.

Madaniyatning yana bir muhim jihati — u yoshlarni turli xalqlar madaniyati bilan tanishtirib, ularning tafakkurini kengaytiradi. Global muloqot davrida madaniyatlararo aloqalarning kengayishi yoshlarning dunyoqarashini boyitadi, ularda tolerantlik va madaniyatlar xilma-xilligiga hurmat bilan qarash kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shunday qilib, madaniyat yoshlarning ma’naviy barkamolligini ta’minlashda ta’lim tizimi bilan bir qatorda kuchli tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi.

Bugungi axborot asrida ommaviy axborot vositalari (OAV) yoshlar ongiga eng tez va samarali ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Televizion dasturlar, internet, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, raqamli media platformalar yoshlarning kundalik hayoti va fikrlash tarziga jadal kirib kelmoqda. OAV orqali ular katta hajmda axborot oladi, dunyodagi voqealardan xabardor bo‘ladi va ijtimoiy fikr shakllanishida faol ishtirok etadi.

OAVning ijobiy jihati shundaki, u yoshlarni ilm-fan, ma’rifat, sog‘lom turmush tarzi, vatanparvarlik, madaniyat va san’atga oid ma’lumotlar bilan boyitadi. Ma’naviy-ma’rifiy ko‘rsatuvlar, hujjatli filmlar, tarbiyaviy kontentlar yoshlar dunyoqarashini kengaytiradi va ularda axborot madaniyati shakllanishiga yordam beradi. Ta’lim jarayonida ham OAVning roli ortib bormoqda — onlayn platformalar, o‘quv videolar va interaktiv media resurslar yoshlarning bilim olish jarayonini yengillashtirmoqda.

Biroq OAVning salbiy ta’sirini ham inkor etib bo‘lmaydi. Nazoratsiz axborot oqimlari, zo‘ravonlikni targ‘ib etuvchi materiallar, axloqan zararli kontentlar yoshlarning ruhiy holatiga va axloqiy qadriyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun OAVdan to‘g‘ri foydalanish, media savodxonlikni oshirish, yoshlarni zararli axborotdan himoya qilish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu borada ota-ona, o‘qituvchi, jamiyat va davlat hamkorligi alohida ahamiyatga ega.

San’at — inson ma’naviyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan eng nozik va eng kuchli tarbiyaviy vositalardan biridir. Musiqa, adabiyot, teatr, kino, tasviriy san’at va amaliy san’at turlari yoshlarning estetik didini shakllantiradi, ularda go‘zallikni his etish, yaxshilikni yomonlikdan ajrata olish, hayotga ijodiy va musbat munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni rivojlantiradi.

San’at inson qalbiga emotsional ta’sir ko‘rsatgani uchun, uning tarbiyaviy qiymati juda yuqori. Masalan, adabiy asarlar orqali yoshlar ezgulik, rostgo‘ylik, fidoiylik, vatanparvarlik kabi tushunchalarni chuqur anglaydi. Musiqa va qo‘shiqlar esa inson

ruhiyatini tetiklashtiradi, unda axloqiy-ruhiy uyg‘oqlikni uyg‘otadi. Teatr va kino san’ati esa hayotiy vaziyatlar orqali yoshlarga tahliliy fikrlash, xulosaga kelish, hayotga real baho berish ko‘nikmalarini o‘rgatadi.

Shuningdek, san’at yoshlarning ijodkorlik salohiyatini namoyon etishlariga imkon yaratadi. Rassomlik, qo‘shiqchilik, raqs, hunarmandchilik kabi yo‘nalishlarda mashg‘ulotlar yoshlarning iste’dodini rivojlantiradi, ularda o‘ziga ishonchni kuchaytiradi, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan san’at yoshlar tarbiyasida nafaqat ijtimoiy, balki psixologik omil sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda yoshlarning ma’naviy barkamolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillar kompleks va ko‘p qirrali ekanligi ta’kidlanadi. Xususan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “Media and Information Literacy” konsepsiyasida yoshlar orasida media savodxonlikning yetarli darajada shakllanmaganligi, zararli axborot oqimlarining tezkor tarqalishi hamda soxta axborotlarning yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatayotgani global muammo sifatida baholangan [1]. Buyuk britaniyalik olim D. Buckingham esa media ta’limga bag‘ishlangan tadqiqotlarida yoshlar axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalariga yetarlicha ega bo‘lmasa, ularning ommaviy axborot vositalari ta’siriga tez berilishini va manipulyatsiyaga moyil bo‘lib qolishini ilmiy asoslaydi.[2]

Milliy madaniyat va ma’naviy qadriyatlarning zaiflashuvi masalasiga to‘xtalar ekanmiz, O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ommaviy madaniyatning ayrim salbiy ko‘rinishlari yoshlar ongiga kirib kelib, milliy tarbiya negizlariga zarar yetkazayotganini ta’kidlaydi. U milliy madaniyat va ma’naviyatni asrab-avaylash, uni yoshlar ongiga singdirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri ekanini alohida qayd etadi[3]. Bundan ancha avval Abdulla Avloniy ham “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiya masalasini millat kelajagi bilan bevosita bog‘lab, yoshlar ma’naviy inqirozga yuz tutmasligi uchun axloqiy tarbiya, madaniyat va ma’rifatning uzviy birligini zarur deb hisoblagan.[4]

San’atning yoshlar ruhiyati va ma’naviy dunyosiga ta’sirini psixologik jihatdan asoslab bergan olimlardan biri L.S. Vygotskiy bo‘lib, u san’atni inson ruhiyatiga kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatuvchi, shaxsning ichki dunyosini boyituvchi muhim vosita sifatida talqin etadi. Uning fikricha, estetik zavq orqali insonning axloqiy va ma’naviy sifatlari shakllanadi[5]. Psixolog B. Nemov ham san’atning shaxs emotsional holatini barqarorlashtirish, ijobiy ruhiy muhit yaratishdagi o‘rnini ilmiy asosda yoritib bergan.[6]

Ommaviy axborot vositalarining jamiyat ongiga ta’siri masalasida kanadalik olim M. McLuhan OAVni “inson tafakkurining kengaytmasi” sifatida baholab, axborot vositalari nafaqat axborot uzatishini, balki jamiyatning fikrlash uslubini shakllantirishini isbotlab bergan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, OAVning tarbiyaviy

yo‘nalishda emas, ko‘proq ko‘ngilocharlik asosida rivojlanishi yoshlar ongida yuzaki tafakkurni kuchaytiradi[7]. O‘zbekistonlik pedagog olim S. Tursunov esa ma’naviy tarbiya samaradorligi oila, ta’lim muassasalari va jamiyat hamkorligiga bevosita bog‘liqligini ta’kidlab, bu tizimlardan birining uzilishi tarbiya jarayonining sustlashuviga olib kelishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.[8]

Shunday qilib, yuqoridagi olimlar va xalqaro tashkilotlar tadqiqotlari yoshlarning ma’naviy barkamolligini ta’minlashda madaniyat, san’at va ommaviy axborot vositalarining o‘rni nihoyatda muhim ekanini, biroq ushbu sohalarda mavjud muammolarni bartaraf etish uchun tizimli, ilmiy asoslangan va uzviy hamkorlikka tayanilgan yondashuv zarurligini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning ma’naviy barkamolligini ta’minlash jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo‘lib, bu jarayonda madaniyat, san’at va ommaviy axborot vositalari o‘zaro uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritishini taqozo etadi. Madaniyat yoshlar ongida milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va axloqiy qadriyatlarni shakllantirsa, san’at ularning estetik didini rivojlantiradi, ruhiy va axloqiy kamolotiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ommaviy axborot vositalari esa yoshlarning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va axborot madaniyatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq zamonaviy axborot makonida zararli kontentning ko‘payishi, ommaviy madaniyatning ayrim salbiy unsurlari, milliy madaniyatga qiziqishning sustlashuvi hamda OAVda tarbiyaviy mazmundagi materiallar ulushining yetarli emasligi yoshlar ma’naviy tarbiyasiga jiddiy tahdid solmoqda. Shu bois ushbu sohalarda mavjud imkoniyatlardan to‘liq va samarali foydalanish, ularning tarbiyaviy salohiyatini kuchaytirish zamon talabi hisoblanadi.

Yoshlarning ma’naviy barkamolligini mustahkamlash uchun quyidagi **umumiy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq**:

— ta’lim muassasalarida milliy madaniyat va san’atga oid tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tizimli yo‘lga qo‘yish;

— yoshlar orasida **media savodxonlikni oshirish**, ularni zararli axborotlardan himoya qilish bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etish;

— ommaviy axborot vositalarida **ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ko‘rsatuvlar va loyihalar ulushini ko‘paytirish**;

— yoshlarni san’at, ijod va madaniy tadbirlarga faol jalb etish orqali ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish;

— **oila–maktab–jamiyat–OAV hamkorligini mustahkamlash**, tarbiya masalasida umumiy maqsad sari yo‘naltirilgan yagona strategiyani shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ma’naviy barkamolligi madaniyat, san’at va ommaviy axborot vositalarining uyg‘un va mas’uliyatli faoliyati bilangina ta’minlanadi. Ushbu yo‘nalishlarda olib boriladigan tizimli va maqsadli chora-tadbirlar

jamiyatning ma’naviy salohiyatini yuksaltirishga, barkamol, bilimli va ma’rifatli avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. **Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers.** – Paris: UNESCO, 2011. – 192 p.
2. Buckingham D. **Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture.** – Cambridge: Polity Press, 2003. – 236 p.
3. Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
4. Avloniy A. **Turkiy guliston yoxud axloq.** – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 112 b.
5. Vygotsky L.S. **Psychology of Art.** – Cambridge: MIT Press, 1971. – 202 p.
6. Nemov R.S. **Psixologiya. 3-jild.** – Moskva: Vlados, 2001. – 368 b.
7. McLuhan M. **Understanding Media: The Extensions of Man.** – New York: McGraw-Hill, 1964. – 359 p.
8. Tursunov S. **Ma’naviy tarbiya asoslari.** – Toshkent: Fan, 2015. – 184 b.
9. Qodirov B. **Yoshlar ma’naviyati va zamonaviy axborot makoni.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 144 b.
10. Xolmatova M. **San’at va tarbiya: nazariy va amaliy masalalar.** – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 156 b.